

G‘aznaviylar davrida siyosiy boshqaruv tizimi va ijtimoiy munosabatlar

Jahon siyosati va tarix fakulteti Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrası

2 kurs magistranti Shodmonova Azima

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada G‘aznaviylar davridagi ma‘muriy boshqaruv tizimiga doir ma‘lumotlar keltirilgan. Unda G‘aznaviylarga oid oliy va mahalliy boshqaruv tizimidagi lavozimlar, mansablar, turli unvonlar haqida ham atroflicha yoritilgan. Shu bilan bir qatorda Mahmud G‘aznaviy hukmronligi davrida qo‘shindagi askarlarni rag‘batlantirishi haqida, mamlakatning ichki siyosatida ham G‘aznaviy sultonlar asosan, harbiy kuchga tayanishi, Sultonlarga sodiq qullardan tashkil topgan qo‘shin tuzilishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

G‘aznaviylar davri boshqaruv tizimi o‘zining murakkabligi bilan diqqatni jalb etadi. U ko‘p jihatdan Somoniylar, Qoraxoniylar zamonidagi davlat boshqaruvi tizimlariga yaqin va o‘xshash. Bu tabiiy hol. Chunki har qanday boshqaruv tizimi (shakli) mavjud ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy sharoitga bog‘liq bo‘ladi. Boshqa tomondan esa G‘aznaviylar hukmronligi ostida bo‘lgan Xuroson, Seyiston, Qobul, G‘azna kabi viloyatlar mintaqaning ajralmas tarkibiy qismlari bo‘lib kelganliklarini nazarda tutsak, boshqaruvchilik taraqqiyotidagi o‘xshashliklar, yaqinliklar sababi ma'lum bo‘ladi.

Bayhaqiyning G‘aznaviylarga oid fikrlari Sultonning buyruqlariga itoat qilib boshqaruvga alohida e‘tibor qaratgan. Bu boshqaruvda aholining asosiy qismini 3 guruhga ajratadi:

- “xirad-u suxan, nafs-i guyanda” – ilm-fan sohasi;
- “nafs-i xashmi giranda” – himoya qiluvchi qism;

➤ “nafs-i arzu” - raiyat qism¹.

“Nafsi guyanda” qismini podsho boshqarib, adolat va qattiqqo‘llik bilan nazorat qilgan. “Xashm” bu qirolning qo‘shini bo‘lib, dushmanlarga qarshi o‘zini himoya qilishda, dushmanlarni mag‘lubiyatga uchratish va “raiyyat” aholini himoya qilish uchun maxsus tuzilgan. Bu qo‘shin shunday tayyor bo‘lishi kerakki, bu, albatta, podshoning buyruqlarini bajarishi shart bo‘lgan. “Nafs-i arzu” bu podshoga qaram bo‘lgan aholi bo‘lib, shunisi muhimki, ular qirolidan qo‘rqishi, uni hurmat qilishi va o‘zlarining itoatkorligini namoyon qilishi kerak bo‘lgan.

Mahmud G‘aznaviy va uning o‘g‘li Mas‘ud hukmronligida G‘aznaviylar davlatining siyosiy harakatida hukmdorlarning bir-biriga bo‘lgan munosabati muhim sabablarni keltirib chiqarardi. V.V. Bartoldning “Turkestan” (291-293) nomli adabiyotida Sultonlarning boshqaruvi haqida aytib o‘tilgan. Unga ko‘ra, islom dunyosida vatanparvarlik va mahalliychilik g‘oyalari bu davrda yaqqol ko‘zga ko‘rinadi. Bu paytda ko‘pchilik dehqonlarning qishloq joylari yoki hunarmand va savdogarlarning shaharlari o‘zlarining doiralarida cheklanib qolgandi. Ular hukumatdan soliq to‘lash orqali o‘zlarining uy-joylari hamda ozodliklarini saqlab qolish maqsadida tinch yo‘lda hal qilishni umid qilishardi.

Sultonlarning maqsadiga keladigan bo‘lsak, ular hukmronliklarini saqlab qolish uchun mafkuraviy tomondan hamda Abbosiylar xalifaligi bilan do‘stona munosabat o‘rnatish orqali sunniylik yo‘nalishi ostida hududiy boshqaruvni o‘rnatishgan. X asrda islom dunyosining ko‘pgina hududlarida shialik yo‘nalishi g‘alabasini ko‘rish mumkin: g‘arbda Fotimiylar xalifaligi tashkil topishi orqali Arab yarimorolidagi ko‘pgina amirliklar Suriya, Iroq hamda Eron hududlari, Buyidlar va Daylamiy sulolalari shialik yo‘nalishiga e‘tiqod qilishgan. Buning oqibatida shialik yo‘nalishi Eronning barcha hududlariga tarqalib, asosiy diniy e‘tiqodiga aylanayotgan edi. Bu paytda Sabuqtegin va Mahmud G‘aznaviy Somoniylar e‘tiqod qilgan sunniylik yo‘nalishiga ergashishgan. G‘aznaviy va

¹Bosworth C.E. The Ghaznavids / University of Edinburgh- 1963, see pp. 53.

Somoniylar sulolalari Bagʻdod bilan yaqindan aloqa oʻrnatganliklari bois oʻzlarining kuchi yanada oshadi va shundan bilsa boʻladiki, Gʻaznaviylar sunniylik yoʻnalishini qoʻllab quvvatlashgan. Gʻaznaviylarni bu yoʻnalishdan maqsadi quyidagilarda keltirilgan.

Yuqorida aytib oʻtilganidek, Mahmud Gʻaznaviy 999-yilda Xurosonda al-Qodirga xutba oʻqitadi va Vali Amir al-Muminin va Yamin ad Daula va Amin al Milla kabi unvonlarni oladi. Bu esa uning xalifaga boʻlgan sodiqligi va xalifa dinining himoya qiluvchi sifatida oʻrnini anglatgan². Hukmronligi davomida Mahmud Gʻaznaviy davlatni boshqarish uchun xalifa tomonidan beriladigan huquqiy tasdiqqa muhtoj edi. 1005-1006-yillarda Bagʻdod bilan aloqa oʻrnatish Shimoliy Hindiston hokimi Abul futuh Daud ibn Nasrning Ismoilning ishonchiga qaramay Mahmud Gʻaznaviy bilan doʻst edi. Utbiyning eslatishicha, Sulton Mahmud Gʻaznaviy aslida dinga u qadar eʼtiqod qiladigan shaxs boʻlmagan, lekin u oʻz kuchini shu din orqali saqlab turishga qaratgan. Hattoki uning razilligi va yomon ishlaridan ham koʻrish mumkin. Asosiy sabab esa boylik uchun olib borilgan, chunki Multon juda boy shahar edi³. Gʻaznaviylar hududidan Ismoilni haydash Abbosiy xalifalariga hurmat koʻrsatganligidan dalolatdir. Xurosonda Mahmud Gʻaznaviy Qaramiylar qismini Ismoilni taʼqib qilishga undaydi. U Fotimid ul-Tahartini qatl qilganligi evaziga Al-Qodirdan Nizom ad-Din va Nosir al-Haqq unvonlarini oladi. Mahmud Gʻaznaviyning 1017-yil Xorazmga qilgan yurishiga asosiy sabab harbiy-siyosiy jihati edi. Unsurini tomonidan aytilishicha, Gurganj va uning chegaralari Qaramiylarning markazi hamda hech bir dinga sigʻinmaydigan shaxslarning yurti deb tasvirlangan⁴.

Mahmud Gʻaznaviy odatda xalifaning nomini tangalarda ehtiyotkorlik bilan joylashtiradi va oʻzining elchi va qoʻshiniga sovgʻalar berib Bagʻdodga joʻnatardi, shuningdek, u dinning himoyachisi sifatida Buyidlarga qarshi urushda koʻzga

²The titlature of the early Ghaznavids, *Oriens* XV-1962. pp 215-26

³ Bosworth C.E. *The Ghaznavids* / University of Edinburgh-1963, see pp. 52.

⁴ Oʻsha joyda / see pp. 53

ko‘rinib, kechiriladigan xato sababli Mahmud G‘aznaviyga imkoniyat berar edi. Mahmud G‘aznaviy o‘zi haqida gapirar ekan, “Xudo bu hudulardan zolimlarni va g‘ayridinlarni ham tozalaydi”. Mahmud G‘aznaviyning mamlakatni ozod qilishdagi sa‘y-harakatlari natijasida G‘aznaviylar davlati hududi Ismoililar va Mutaziliylar, shuningdek, shialik yo‘nalishiga e‘tiqod qiluvchilardan tozalanib, hamisha sunniylik g‘alaba qilishini o‘zlarining xizmatlari deb bilishgan. Bunga o‘xshagan harakatlar, ya‘ni dinga bo‘lgan e‘tiqodi va e‘tibori Mahmud G‘aznaviyning so‘nggi yillarida kuchaya boshlagan. Shabonqorayning ma‘lumot berishicha, Mahmud G‘aznaviy ko‘klarga ko‘tarilib, u 50000 kofir va hukumatga qarshi odamlarni o‘ldirganini aytib o‘tadi. Mas‘ud ibn Mahmud hukmronligi yillarida ham dinga bo‘lgan e‘tibor kuchli bo‘lgan⁵. Mas‘ud Nishopurda 1030-yilda xalifaning elchisini qabul qiladi, elchiga akasi Muhammad bilan kurashish uchun zarur qurol-aslahalar berib jo‘natiladi. 1031-yilda al-Qodir vafot etgandan so‘ng uning o‘g‘li al-Qoyim Bag‘dod taxtiga o‘tiradi. Mas‘ud uning davrida Xuroson, Xorazm, Nimrud, Zabuliston, butun Hindiston hududi, Sind, Chag‘oniyon va Xuttalon, Qubodiyon, Tirmidh, Qusdor, Makron, Valishton, Kikonan, Ray, Jibol, Isfahon hamda Hulvand tekisliklaridan uzoqroqdagi hududlar Gurgon va Tabariston hududlariga kirib borish uchun rasmiy hujjat qabul qiladi. Buning evaziga qimmatbaho feruza tosh, mato, taqinchoqlar va muattar hidli atirlarni sovg‘a qilib jo‘natadi. 1033-yilda Xalifaning keyingi elchisi “manshur” olib keladi, unda Mas‘ud sodiqligi ifodalagan rasmiy ko‘rsatnoma qilingan.

G‘aznaviylar sultoni salla va qilich taqib, quyidagi so‘zlarni ma‘lum qiladi: «Bu sallani qo‘lim bilan boshimga qo‘yishim din tarafdoriga aylanishim» deb tojdan keyin uni boshiga qo‘ydi. Qilichni ko‘rsatib Zanadiqlar va Qaromatiylarni yo‘q qilish va mening otam Yamin ud-Davla vad-Dinning sunnatiga rioya qilish shu bilan birga dushmanlarning qo‘lidagi boshqa hududlarni bosib olish uchun deb ko‘rsatdi⁶. Shundan fikr yuritadigan bo‘lsak, G‘aznaviylarning bunday

⁵Unga Nosir Din Alloh, Hofiz Ibod Alloh, al-Mutaqimin A‘da Alloh va Zohir Xalifat Alloh Amir al-Muminin kabi unvonlar berilgan.

⁶Bosworth C.E The Ghaznavids / 1963, see pp. 52.

holatdagi epizodlari imperiya tuzilishida va mustahkamlanishida, shuningdek, hududi kengaytirishda asosiy rol o'ynadi. Lekin xalifalar sultonlarga na moddiy, na harbiy jihatdan yordam berishgan.

G'aznaviylar davlatida qo'shin tuzilishi. G'aznaviylarning harbiy ehtiyoji tufayli, qo'shin saltanatdagi eng oliy va muhim muasasa hisoblanar edi. Chunki, Mahmud G'aznaviy davrida XVIII asrda Prussiyaga o'xshab qo'shin bu davlat ma'nosini berardi. Umuman olganda, G'aznaviylar armiyasi taraqqiyoti Sharqiy Islom an'analari asosida shakllantirilgan edi. Somoniylar va Buyidlar qo'shinining bir namunasi desak adashmaymiz. Biroq, bir qancha aniq o'zgarishlar G'aznaviylar qo'shinining umumiy ko'rinishini belgilab berar edi, masalan, etnik xilma xillik juda katta armiya asosini yaratar edi. G'aznaviylar qo'shining asosiy qismini G'ilmon va Mamalik qul harbiy askarlaridan shakllantirilgan bo'lib va yana ko'pchilik askarlar musulmon forslar qo'shinlari asosida tuzilgan edi⁷. Ahamoniylar va Samoniylar, har ikkalasining davrida ham ham imperiya tan soqchilik xizmati mavjud bo'lib, "Pushtig'bon", va 10.ming atrofida o'lmas kavaleriya korpusi va albatta, tabiiy ravishda hukmdor atrofida to'dalanadigan oliy darajali harbiylardan iborat edi. Biroq, Sosoniylarning sud tizimi asosan bir qancha yirik oilalar o'rtasida avloddan-avlodga o'tib kelar edi, qo'mondonlik esa aslzodalar bo'lgan Vuzurg'on va Azadinlardan tuzilgan edi. Lekin shunga qaramay, G'aznaviylar va Sosoniylar o'rtasida aniq farqlar mavjud edi. Ya'ni, Sosoniylar fillardan islom qo'shinlari kabi "Ard" usulini qo'llasa, G'aznaviylar esa qo'llarida tutgan holda foydalanar edi.

Qul harbiy kuchlarning ahamiyati, ular jangga hech qanday qo'rquvsiz va faqat g'alaba uchun kirar edi. Chunki, ularda mahalliy qarindosh urug'lar yoki ular uchun qadrli insonlar yo'q edi. Olib kelingan qul ilk davrdan "Dar al-Islom"dan tashqarida ruhan harbiy ruhda va jismonan esa janglar bilan pishitilgan. Hukmdorga birlashtirilgan qul harbiyda shu xislatlar mavjud bo'lgan; hukumdorga

⁷.Bosworth C.E The Ghaznavids / 1963, see pp. 102.

har doim o'zgarmas ravishda sadoqatli bo'lish, bor vujudini xo'jayinidan qarzдор deb bilish, mahalliy harbiylardan farqli ravishda ularda moddiy ashyolarga, molidavlatga umuman qiziqish yo'q qilib tarbiyalanar edi. She'rlarda kelganidek, "sadoqatli bo'ysunuvchan qul, yuzta boladan yaxshiroq, chunki qul hatto o'z otasini ham o'ldirishi mumkin, lekin erkin harbiy o'zini uzoq umrini xohlaydi"⁸.

Xalifalik bo'ylab qul harbiy guruhlarini tashkillashtirish tarixi uzoq Abbosiylarga borib taqaladi. Chunki, ular erkin arablardan tuzilgan arab harbiy guruhi "muqatila"ni tugatib, ularning o'rniga Turklardan bo'lgan jangchilarni ko'paytirib o'z qo'shinlarini boyita borishadi. Gap isboti uchun Al-Mattasim Misrda Arablarni "Divan"dan bo'shatib ular o'rniga g'ulomlarni joylashtiradi. Asosan, Tulunlar va Ixshidlar juda ham o'zlarining sadoqatliklarini ko'rsatishgan. Safforiy Amir Ibn Laysning qo'shinlari safida 2 mingdan ziyod g'ulom askarlar mavjud bo'lgan, Muhammad ibn Tohirdan Nishopurda qurol-yaroq qo'lga kiritilgach, o'z askarlari safiga hind askarlarini ham yollaydi. Uning ukasi Amir ham huddi shu jarayonni davom ettirib, g'ulomlarni saltanat bo'ylab turli joylarga josuslikka qo'yadi. Bu kabi tajribalardan G'aznaviylar foydalangani ham shakshubhasizdir. Somoniylar o'z qo'shini tarkibini to'g'ridan Sirdaryo bo'yidagi dashtlardan turk g'ulomalarini yollashgan Va ulardan keyinchalik yirik sarkardalar yetishib chiqqan. Masalan, Ahmad ibn Ismoilni bosh sarkardasining ijtimoiy kelib chiqishi qul bo'lgan. Istahriyning yozhanlari shuni ko'rsatadiki, Somoniylar armiyasidagi qullardan tuzilgan qo'shin janglarda o'zining mardligi va jasorati bilan janglarda shuhrat qozongan.

Dastlab G'aznaviylar qo'shinining qullar tarkibi Salar-i G'ulomon tomonidan boshqarilgan. Salar-i G'ulomon bosh sarkarda Hojib ul-buzrugdan keyingimaqomda turgan. Bayhaqiyning yozishicha, Salar-i G'ulomon Saroy g'ulomlari mahkamasining yetakchisi bo'lib, lekin Mas'ud hukmronligi davrida Salar-i G'ulomon bosh sarkarda bir xil mavqeda turgan. Qullar asosan turklar,

⁸.O'sha joyda / pp. 103.

tojiklar, hindlar va xurosonliklardan iborat bo'lgan. G'ulomlar tarkibidan maxsus guruh tuzilgan bo'lib, ular sultonning shaxsiy tansoqchilari bo'lishgan. Shuningdek, ular G'ulom saroy, G'ulomon-i xos va G'ulomon-i sulton deb atalgan⁹. G'aznaviylarda g'ulomlarning mavqei davlat hukmronligining so'nggi davrigacha saqlanib qoldi. G'aznaviy g'ulomlarning tayyorlashning dastlabki bosqichini dala mashg'ulotlaridan iborat bo'lgan bo'lishi mumkin, lekin maxsus tayyorlash dasturi haqida bizda ma'lumotlar yo'q. Qo'shinning tarkibidagi turli lavozimlar haqida ma'lumot deyarli uchramaydi. Muhammad Nozim G'aznaviylarning qo'shinini o'rganib, ularni ketma-ketlikda tuzgan, lekin asossiz tomonlari ko'proq. Tarixchi Muhammad Nozimning fikriga ko'ra, xayiltosh 10 harbiy bo'linmani yetakchisi hisoblangan. Biroq bu bizga harbiy unvon emas, balki tuzilmadek tuyuladi. Naqib-i xayltoshin 500 Xayltoshlar yetakchisi. Bayhaqiyning ma'lumotiga ko'ra, Marvdagi Saljuqlarga qarshi Dandanaqon janglarida qo'shinning 'asnaf' (asosi)ni tashkil qilgan¹⁰.

G'ulomlar jamoasi odatda bir tanalik jang qilishgan, garchi oddiy guruhlarga o'xshab bir xil xizmatga birlashtirilgan bo'lsalar-da, ular janglarda markaziy qismni egallashgan. Qachonki, oldingi qismdagi jangchilar mag'lubiyatga uchrashi bilan ular asosiy jangga kirishgan. Qo'shinning asosiy qismi umumiy qo'shin qo'mondoni tomonidan berilgan buyruqlarga itoat qilgan bo'lsa-da, ulardan farqli ravishda g'ulomlar guruhi faqatgina o'zlarining hojiblariga bo'ysunishgan. Ularning o'zlariga lashkarboshilar birlashtirilgan bo'lib, ba'zi manbalarda ular Sarhang-i saroy deb eslatib o'tiladi. G'ulomlarning moddiy ta'minoti mehtar-i saroy tomonidan, ularning ehtiyojlari esa maxsus kotib dabir-i saroy yoki dabir-i g'ulomon tomonidan ta'minlangan. Ularning maxsus qurol-yarog'lari mavjud bo'lgan. Harbiy bazmlar uchun maxsus qurollar taqishgan hamda ular tirad, mitrad deb atalgan. Har bir g'ulom ixtiyorida kamar, gurzi bo'lgan¹¹.

⁹ Bosworth C.E. The Ghaznavids / 1963, see pp. 103.

¹⁰ Muhammad Nazim, The life and times of sultan Mahraid of Ghazna, Cambridge, 1931. pp 102

¹¹ Bosworth C.E. The Ghaznavids / 1963, see pp.104.

Dalillarga ko‘ra, Sultonning kiyim-kechaklari saqlanadigan eng muhim joy bo‘lib, uni saqlovchisi Jamodor deyilgan. Jamodor asosan qullardan tayinlangan. Va uning javobgarligi qulga yuklanib jangda yo‘qolgan kiyim javoni juda ham jiddiy masala hisoblangan. Shu bilan birgalikga saroyda sultonning boshqa bir qancha yirik lavozimlari qullardan shakllantirilgan. Chunonchi, qurol-yarog‘ ta‘minotchisi ‘Silohdor’, sulton bazmalarini tashkilotchisi Chatrdor va Alamdor deb nomlangan. Har bir saroyda hukmdorning shaxsiy xizmatchisi “xadim” bo‘lib, ular sultonga sadoqat bilan xizmat qilishgan. Sultonning josuslik qismi markaziy Devoni Shug‘li Ishraf tomonidan boshqarilgan. Qo‘shinga yetakchilik qilish hamda ichki va tashqi tashkilotlar, savdo-sotiq, pul muomalasi to‘g‘ridan to‘g‘ri Devoni Ard tomonidan nazorat qilingan. Arid mahkamasining boshlig‘i Vazir hisoblangan. Markazda Arid mahkamasining boshlig‘i bilan birgalikda Aridlar va katxudolar (bosh qo‘mondon) qo‘shinga yetakchilik qilgan. Qo‘shinning chap tomoni maysara, o‘ng tomoni maymana, markazi qalb deyilgan. Naqib asosan qo‘shinni qay holatda tuzilishi va joylashtirilishi haqida buyruq berilib, qachonki jang boshlanganda ular o‘sha buyruq ostida saflanishgan¹².

¹²Spuler B. Ghaznavids. EI, V. III. P. 1050-1053

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абу-л- Файз Байхаки. История Масуда (1030-1041) / Перевод с перс., введ ., комм. и прил. А.К. Арендса. Изд.2-е, дополненное. – М.: Наука, ГРВЛ. 1969.
2. Арендс К.А. История Масъудия. - М.: Наука, 1962.
3. Bosworth C.E. The Ghaznavids / University of Edinburgh-1963.
4. Ganguly D. C., “Ghaznavid Invasion,” in The History and Culture of the Indian People V: The Struggle for Empire, Bombay, 1966.
5. Spuler B. Ghaznavids. EI, V. III. P. 1050-1053.
6. The titlature of the early Ghaznavids, Oriens XV-1962.
7. Якубовский А. Ю. Махмуд Газневи. К вопросу о происхождении и характере Газневидского государства. - Л.: Наука 1934.
8. Muhammad Nazim , The life and times of sultan Mahraid of Ghazna, Cambridge, 1931.

Xulosa qilib aytganda, Gʻaznaviylar davlati qisqa vaqt davomida hukmronlik qilgan boʻlsa-da, tarixda oʻzining alohida oʻrniga ega. Biz Gʻaznaviylar davlati hukmron paytiga eʼtibor beradigan boʻlsak, bu vaqtda Somoniylar davlatining yemirilishi ham Gʻaznaviylarni davlat sifatida shakllanishiga va oʻz hududini mustaqil boshqarish huquqiga ega boʻlganligini koʻrishimiz mumkin. Gʻaznaviylar hukmronlik qilgan davrni boshqa hukmron davlatlarning boshqaruvi va ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishida oʻxshashlik tomonlari bor. Zero Gʻaznaviy sultonlar oʻsha paytdagi hukmron davlatlar bilan aloqa oʻrnatilganligini koʻrishimiz mumkin.